

INGLIZ TILI FANINI O'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK METODLARDAN FOYDALANISH
USULLARI

Sodiqova Dilrabo Baxtiyorovna

Buxoro viloyati Shofirkon tumani

17-son maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi

Fattoyeva Gulchehra Shuhrat qizi

Buxoro viloyati Shofirkon tumani

17-son maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi

Izzatova Firuza Mehriddinovna

Buxoro viloyati Shofirkon tumani

17-son maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Quyida berilgan maqolada dars faolligini oshirishga xizmat qiladigan interfaol usullarning ta'lim jarayonida qo'llash qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi va ularning o'quvchining har tomonlama fikrlash doirasiga ta'siri haqida fikr bildirilgan.*

Hozirgi kunda yurtimizda chet tillarini intensiv usul orqali o'qitish ham rivojlanib bormoqda. Hayot zambaragi tezlik bilan aylanayotgan bir paytda hech bir sohani chet tilisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Har qanday sohada yaxshi bir mutaxassis bo'lish uchun ingliz tilini bilish oddiy talabga aylanib qoldi. O'quvchilarda tilga bo'lgan qiziqish uyg'otish ilk qadamning boshlanishidir. Chet tili va o'zbek tillarida bilim va ko'nikma hosil qilish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- a) og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish;
- b) talaffuzga e'tibor qaratish;
- c) lug'at va iboralar yodlash;
- d) audio matnlar tinglash va qayta hikoya qilib berish;
- e) muloqot muhitini shakllantirish va h.

Yuqorida sanab o'tilganlar orasidan o'quvchi lug'at va iboralar yodlashga biroz oqsaydi. Bunga sabab qilib dangasalik va xotira sustligini misol qilib aytishimiz mumkin. Ko'pchilik til o'rganayotganda xotirasi pastligidan shikoyat qiladi. Aslida ularda xotira emas, balki kuzatuvchanlik juda yomon bo'ladi.

Chet tili va o'zbek tili (rus sinflari)ni o'rgatishda xotira faolligini oshirish uchun mnemonika metodidan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu metoddan foydalanish til o'rganish jarayonini osonlashtirib qolmay, balki uni tez, sifatli va to'liq o'rganishga sabab bo'ladi.

Mnemonika metodida o'xshashlik va bog'liqlik asosida xotira hajminikengaytirish hamda kerakli ma'lumotlarni eslab qolish uchun ishlab chiqilgan maxsus uslub to'plamidir. Bunda yangi noma'lum bo'lgan tushunchalar inson ongida allaqachon ma'lum bo'lgan ma'lumotlar bilan bog'lanadi va natijada yangi ma'lumotni eslab qolish osonlashadi.

Mnemonika metodidan foydalanishning ijobiy tomonlaridan biri o'rganilayotgan fanga qiziqishning paydo bo'lishidir.

Darsliklarning o'quv materiallarini yodlash bo'yicha tavsiyalarning to'liq yo'qligi nafaqat chet tili va o'zbek tilidagi darsliklarida, balki boshqa har qanday darsliklar uchun ham xarakterlidir. Masalan: Tarix fani juda ko'p tarixiy sanalarni o'z ichiga oladi va bu ma'lumotni qanday qilib oson o'zlashtirsa bo'ladi? Maktabdagi tarix darsini o'rganganingizdan keyin qancha ism, familiya, sanani eslay olasiz? Yoki tarix kitoblarida tasvirlangan voqealar xronologiyasini izchil umumlashtira olasiz? Bu kabi savollar o'quvchilarning qiynab qo'yishi tabiiydir.

Mnemonika nafaqat yangi so'zlarni yodlashusullarini taklif etadi, balki og'zaki nutqni hamda to'g'ri talaffuz me'yorlarini tartibga solishga ham undaydi. Ushbu metod yangi so'zlarni yodlash va ularni uzoq muddatli xotiraga mustahkamlash, miyada ko'p sonli iboralarni to'plash hamda darsliklarga biriktirilgan ovozli materiallar bilan ishlashni ham o'z ichiga oladi. Quyidagi berilgan misollar orqali buni kuzatish mumkin:

So'zlarni assosiasiyalar yordamida yodlab olish va bitta so'zni keyingisiga ulab, hikoya tuzish orqali yodlash zarurdir.

olma, qalam, bog', shkaf, daraxt, kapalaklar, osmon, kartoshka, pomidor, stadion, tulki, samolyot, pishloq, voleybol, maktab, non, gazeta, sabzi, g'oz.

Olma qalamga xat yozibdi. Qalam xatni o'qish uchun bog'ga kiribdi. Bog' ichi shkafarga to'la. Daraxt barglari tabiatga chiroy bermoqda. Bargga kapalaklar kelib qo'ndi. Shu payt osmondan kartoshka va pomidor stadionga yog'ila boshlabdi. Bog'ga kirgan tulki kartoshka va pomidorni yemoqchi bo'libdi. Buni ko'rgan samolyot darrov kelib qo'nibdi. Samolyot tulkiga pishloq olib kelibdi. Ular ikkalasi voleybol o'ynamoqchi bo'lishibdi. Shu payt tulki maktabga borish kerakligi esiga tushibdi. Yo'ldan ketayotsa tulkining oldiga gazetaga o'ralgan non chiqibdi. Shu onda bitta quyon qo'lida sabzi bilan yugurib kelibdi. So'ngra tulkining orqasiga bekinibdi. Quyonning orqasidan g'oz quvib kelibdi. Qochishga ko'zi yetmagan quyon sabzini o'rtaga qo'yibdi. Ular endi birgalikda non va sabzi tanovul qilishibdi.

Hikoya tuzish orqali birinchi axborotni ikkinchi joyga uzatish, o'zaro uzviy bog'lash orqali so'zlarni yodlash oson va xotirada abadiy qolishga olib keladi.

Yilning qaysi oylari **31 kun**, va qaysilari **30 kun** ekanligi har doim ham insonning yodida turavermaydi. Bu dalilni biz quyidagi inglizcha she'r yordamida osonlik bilan o'rganib olishimiz mumkin.

*Thirty days have **SeptemberApril, June and November**,
All the rest have thirty-one;
February has twenty-eight alone*

Masalan: **"I" before "E" except after "C"** ("E" harfidan oldin "I" harfi keladi, agar "E" harfi "C" harfidan keyin kelsa, "I" harfi undan keyin keladi) degan mnemonik qoida. Bu qoida yordamida ba'zi so'zlarning yozilishidagi xatoliklarning oldini olish mumkin. Quyidagi so'zlar ushbu qoida asosida yoziladi: *believe, convenient, experience, mischievous, piece,*

relieve, sufficient. Bu misollarda esa “E” harfi “C” harfidan keyin kelganligi tufayli, “I” harfi undan keyin yoziladi: *deceive, receipt, receive*. Lekin shuni doim yodda tutingki, ingliz tili istisnolarga juda boy til hisoblanadi. Hattoki ingliz tilida **“The exception proves the rule”** (“Istisno qoidaning to’g’ri ekanligini isbotlaydi”) -degan maqol ham bor. Juda ko’p holatlarda istisnolar mavjud bo’lib, ularni yodlash kerak bo’ladi. Yuqoridagi qoidaga istisno sifatida quyidagi so’zlarni keltirish *either, foreign, height, leisure, neighbo(u)r, seize, their, weigh, weird*.

Xulosa qilib aytganda, yuksak xotiraga ega bo’lish uddalab bo’lmas ish emas. Aslida u juda oson. Kuzatuvchanlik, diqqatni jamlashni o’rganish, tarixiy sanalarni yoddasaqlab qolish uchun suratlar bilan bog’lash, ismni esda saqlash uchun uning ma’nosini bilish, qanday yozilishiga e’tibor berish, darsliklarni qayta-qayta takrorlash orqali esda qoldirish va ,albatta, mnemonika metodidan foydalanish usullaridan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Chet tilini o’qitish metodikasi, Sh. Alimov, A.Ismoilov, Andijon-2007
2. So’z yodlash sirlari, Shohruh-Mirzo Rahmanov, Iskandar Sattibayev, Toshkent - 2015
3. Chet tilini o’qitish metodikasi, I.Yoqubova, I.Xoshimova, Toshkent 2003